

**“ZAMONAVIY DUNYODA G’ALABA KUNINING MA’NOSI:
ULUG’ VATAN URUSHI SABOQLARI VA MEROsi”**

Naimova Ozoda Qudrat qizi.

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va
qiyosiy huquqshunoslik Fakulteti 3-kurs talabasi
ozodanaimova043@gmail.com*

Annotatsiya: Urush xalqlar uchun – ko‘z yoshlar va qon, bu – bevalar va boshpanasizlar, bu – to‘zitilgan kulba, o‘ldirilgan yoshlik va tahqirlangan keksalikdir. Urush g‘olibni ahmoqqa, mag‘lubni vahshiyga aylantiradi. Urush haqiqat va insoniylikni rad etishdir. Gap faqat odamlarni o‘ldirishda emas, ular u yo yoki bu tarzda baribir o‘ladi, balki ongli va qat’iy ravishda nafrat va yolg‘onni insonlarga tarqatishdir. Urush, bu – gohida eng yaxshi odamlar mag‘lubiyatga duchor bo‘ladigan o‘yindir.

Kalit so’zlar: urush, tinchlik, motamsaro ona haykali, g’alaba, musaffo osmon.

Abstract: War is tears and blood for nations, it is widows and homeless, it is a broken hut, killed youth and humiliated old age. War turns the winner into a fool and the loser into a savage. War is a denial of truth and humanity. It's not just about killing people, they're going to die one way or another, but it's about consciously and persistently spreading hate and lies to people. War is a game where sometimes the best men lose.

Keywords: war, peace, mourning mother statue, victory, clear sky.

Аннотация: Война – это слезы и кровь для народов, это вдовы и бомжи, это разбитая хата, убитая молодость и униженная старость. Война превращает победителя в дурака, а проигравшего в дикаря. Война – это отрицание истины и человечности. Речь идет не просто об убийстве людей, они так или иначе умрут, а о сознательном и настойчивом распространении ненависти и лжи среди людей. Война — это игра, в которой иногда проигрывают лучшие.

Ключевые слова: война, мир, статуя скорбящей матери, победа, ясное небо

Urushning nima ekanligini haqiqatda murdalar biladi: faqat ular hammasini oxirigacha anglab yetgan.

Urush dahshatlari. Ushbu maqolamni ikkinchi jahon urushida Vatan himoyasi uchun o‘z jonini fido etgan bobojonim aytib bergan voqeа bilan boshlamoqchiman. Ushbu maqolam bobomdan qanday eshitgan bo‘lsam, shunday yozilgan. Mening bu maqolam

ikkinchi jahon urushida mardlarcha jang qilgan bobom, u kishining do'stlari va qahramonlarcha halok bo'lgan o'zbek askarlari hamda front ortida og'ir mehnat qilgan zahmatkash o'zbek xalqining yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

"Asradingiz Vatanni u kun Vatan sizni unutmas bu kun"

Bobom bizga urush haqida ko'rgan - kechirganlarini so'zlab bergenlarida har gal, bolam urushni bizlar ko'rdik, sizlar ko'rmanglar deb gap boshlardilar. Ha bolam, urush degan so'zni eshitgan har qanday inson, seskanmay, hushyor tortmay iloji yo'q. Hali chunki ko'p yoshlар bilib ulgurmagan bu urush ham ko'pchilikning yodidan ko'tarilgani yo'q. Oting o'chgur bu urush degan balo-yu ofat qanchadan qancha insonlarni yostig'ini quritdi. Tinchgina yashayotgan oilalarni notinch qildi. Gullab yashnayotgan yurtlarni rivojlanishida juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ularni ildiziga bolta urdi.

1941-yil tong saharda kutilmaganda Germaniya fashistlari tomonidan juda katta tayyorgarlik bilan sovet davlatiga qarshi urush boshlandi. O'sha paytlarda bizni O'zbekiston ham sovet davlatiga qarashli edi. Shuning uchun ham vatanimizning har bir burchagida urush boshlanganligi to'g'risida xabar berildi. Odamlar qo'rquv va sarosimaga tushdilar. Ular orasida g'ala-g'ovur shov-shuv ko'tarildi. Qo'lida qurol ushlay oladigan har bir o'zbek o'g'loni frontga safarbar etildi. Hattoki, ba'zi bir yuragida o'ti bor qizlar ham frontga otlandilar. Bizlarni ayni o'ynab-kuladigan davrimiz urush maydonlarida o'tdi. Mard va jasur yigitlar dovdirab, qo'rqib qolmay, tezda hushyor tortib jang maydoniga kirdilar. Men bilan quroldosh do'stlarim ham juda hushyorlik va sergaklik bilan jangga kirdik. Agar biz birgina noto'g'ri harakat qilsak, dushman bizni sezib qolib, qirib tashlardi. Shuning uchun ham o'ta ziyraklik va aql-idrok bilan ish yuritishimizga to'g'ri kelardi. Eng avvalo jang maydonida bir-birimizni qo'llab-quvvatlatlashimiz, bir-birimizni birgina imo-ishoralar bilan tushunishimiz qat'iy talab qilinardi. Aks holda biz dushmani yengolmasaligimiz, ularni qo'lida o'lib ketishimiz, Vatan esa ular ixtiyorida o'tib ketishi mumkinligi bizga qattiq uqtirilardi. Dushman judayam zolim, zulmkor edi. Oldidan chiqqani qirg'in barot keltirar, shahar va qishloqlarni kulini ko'kka sovurardi. Samolyotlardan yomg'irdek yog'ilayotgan bombalarning qulogni qomatga keltiradigan dahshatli gumburlashi, fashizm tomonidan begunoh insonlarga qarata otilayotgan to'xtovsiz o'qlar, pulemyotlarning qo'rqinchli ovozlari go'yoki qiyomat qoyim bo'lgandek edi. Tanklar begunoh insonlar ustidan bostirib o'tar, yarador hamda chalajon insonlar o'zini to'rt tomonga uring, og'riqqa chiday olmay dod-faryod solib, atrofga iltijoli boqib, yordam so'rар, bechora odamlarni ko'zlar qonga to'lgan fashist gazandalari ayovsiz qirib tashlashardi. Qolaversa, odamlarni katta katta yamalarda tiriklayin ko'mishar, qizib turgan pechlarda yoqib yuborishar, ba'zi insonlarni ustlaridan qaynagan suv quyishar, o'tkir tig'li jismlarni tana a'zolariga sanchib azoblashlar, muzlab yotgan suvgaga cho'ktirishar, bu ham yetmagandek sovet davlatining

ba'zi sirlarini ochmagani uchun asirga tushgan bir nechta askarlarni burun, til va quloqlarini kesib olib qiyashar kutgan natijalarga erisholmagach alamlaridan battar qiyashardi. Bu qilayotgan ishlari insonga xos xislat bo'lmasada bu ishlari bilan faxrlanishar va maqtanib bir-birlariga so'zlab berishardi. Bechora insonlarning nohaq azoblanishi, qiyonoqqa solinishi achchiq-achchiq ko'z yoshlari, dodfaryodlari, ohu-vohlari rahm shavqat nimaligini bilmaydigan yovuz fashizimni ko'nglini zarracha ham yumshatolmasdi. Aksincha inson zoti qalbida nafrat uyg'otadigan jirkanch va ayanchli bu voqealar vhshiy va qonxo'r fashizimga ruh bag'ishlar, ular bundan yanada kuch olib, jipslashib, battar yovuzlashardi. Bizlarni ruhimizni sindirib, taslim bo'lishimizni istashardi. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan, inson zoti aqliga sig'dira olmaydigan bu vhshiyliklar dahshatning o'zgini edi.

Bu vhshiyliklar bilan dushman bizni ruhimizni sindirib, o'zimizni taslim qilib, vatanni ularga topshirishmizni istardilar. Tish – tirnog'igacha qurollangan fashizmni bu ayovsiz yovuzliklariga, vhshiyona qiliqlariga chek qo'yish, uni yengish g'alaba qozonish rus, o'zbek va sovet davlatiga qarashli barcha millatlarning askarlari oldilaridagi eng katta majburiyati edi. Bu mas'uliyat vazifalarini o'z zimmasiga olib, men va quroldosh do'stlarim dushmanqa qarshi o'zlarini qo'llagan taktikani o'zlariga qarshi qo'llab ularga qarshi kurashishda qaqshatqich zarba qilib, ularni yengishga va'da berib, hammamiz birlashib, jon-jahdimiz bilan jang maydoni tomon olg'a qadam tashladik. Kundan kunga urush o'chog'i lovvulab, alanga olib, battar avjga chiqsa-chiqardiki, lekin pasaymasdi. Men va quroldosh do'stlarim urush o'chog'iga kirib borishdan qo'rmasdik. Bir nechta dushman qarorgohlariga qarshi o't olib, kulini ko'kka sovurdik va bir nechta dushman askarlarini asir olib qaytdik. Albatta, bu oson bo'lgani yo'q. Juda katta qiyinchiliklar bilan erishdik bunga. Agar biz sergak va hushyor turib, harakat qilmasak, dushman bizni sezib qolib, qirib tashlardi. Hammamizni ochlik azobi va qorli, qirovli sovuq kunlar qiyndi. Haftalab xom kartoshka yeb jon saqlardik. Ochlik azobiga va sovuq kунlarga qaramasdan biz qayta-qayta jangga kirib, boraverdik. Urush oxiri yo'qdek edi go'yo. Janglardan biz uchun qadrli bo'lgan quroldosh do'starimizning ko'pchiligi halok bo'ldi. Ba'zilari og'ir yarador bo'lib, nogiron bo'lib qolishdi. Begunoh do'starimizning hayotdan bevaqt ketishi, ularni og'ir yarador bo'lib qolishi bizga judayam qattiq ta'sir qilar, dushmanlardan o'ch olish rejasi bizga tinchlik bermasdi. Men bilan tirik qolgan do'stlarim halok bo'lgan va og'ir yarador bo'lgan do'starimiz uchun dushmanlardan o'ch olib, uni yengish uchun qattiq jang olib bordik. Quroldosh do'starimizning nohaq to'kilgan qoni uchun dushmanni yer tishlatib, g'alaba qozonib ortga qaytdik. Hamma joyda g'alaba bayrog'lari baland ko'tarildi. Va nihoyat uzoq yillar davom etgan og'ir va mashaqqatli janglardan so'ng uzoq va orziqib kutilgan kun 1945-yil 9-may g'alaba kuni deb e'lon qilindi. G'alaba ovozasi olamni tutdi. Fashizim niyatiga

yetolmadi, aksincha sharmandalarcha o'zi halokatga uchradi. Fashizmning boshchisi bir nobakor insonning dunyoda hukmronlik qilish rejasi deb qanchadan qancha bechora o'zbek, rus va boshqa millat askarlari hayotdan bevaqt ko'z yumib ketdilar. Ko'pchiligi og'ir yarador bo'lib, qo'l-oyoqlaridan ajrab qoldilar. Bir nechtalari dushman qo'lida asir tushib o'lib ketdilar. Tirik qolganlar qatorida men ham Ona Vatanga qaytishga tuyassar bo'ldim. Ona Vatanga qaytganimizga ishongimiz kelmas, nahotki shu rost bo'lsa, deb ich-ichimizdan quvonardik. Meni oiladagilar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar kutib olishdi. Ular meni o'rab olishdi, keyin bag'irlashib uzoq ko'rishdik. So'ngra Ona Vatan tuprog'ini ko'zlarimga surtib yum-yum yig'ladim. Men bilan birga urushga ketib halok bo'lgan, qo'shni -do'starimizning oldida xuddi gunohkordek, qalbi vayron bo'lgan onalarini ko'zlariga qarayolmasdim. Chunki ular menden men bilan birga ketgan do'starimni so'rardilar.

Bu urush qalblarimizga bitmas – tunganmas jarohat, g'am-alam o'chmas iz qoldirdi. Urush faqat insonlar qalbini jarohatlabgina qolmay, qanchadan qancha hur va obod o'lkalarni vayron qildi. Juda katta yo'qotish va talofotlarni boshidan kechirdi. Rivojlangan mamalakatlardan orqada qolib ketdi. Aziz do'starim bobom so'zlab bergen bu voqealar yosh bolalarni aldash uchun to'qilgan ertak emas, aksincha achchiq haqiqatdir. Dunyo dunyo bo'libdiki, qanchadan-qancha vahshiyiliklar bo'lsa, barchasi shu urushda bo'lib o'tdi derdilar bobom. Urushda ko'rsatilgan jasoratlari tufayli yillar davomida medallar va qimmatbaho sovg'alar berishdi.

Endi esa buvimdan eshitgan gaplarimni, ya'ni front ortidagi zahmatkash o'zbek xalqining og'ir hayoti va dardu-hasratlari haqida ham yozmoqchiman.

Buvimning aytishlaricha front ortida ham hayot juda og'ir va qiyin bo'lgan. O'zbekistonda ham ocharchilik, azob-uqubat, og'ir mehnat, mashaqqatli hayot hukm surardi. Havoning issiq-sovug'iga qaramay bechora qariyalar va ayollar zimmasiga og'ir ishlar yuklatilgan edi. Ba'zi bir erkaklar ham qila olmaydigan, og'ir ishlarni ayollar qilishardi. O'zbek xalqi kecha-yu kunduz tinimisiz mehnat qilib o'zları yemay-ichmay-kiymay jang qilayotgan birodarlariga jo'natib turardilar. Ba'zi onalarning o'g'llaridan qora xat kelganiga qaramay, ular ham tinimisiz mehnat qilishardi. Front ortida ham ko'pchilik insonlar ochlikdan, qahatchilikdan sillasi qurib vafot etdilar. Shuncha qiyinchiliklarga qaramasdan bag'ri keng, samimiyl o'zbek xalqi urushdan jabr ko'rgan rus va bir nechta millat farzandlarini ochiq chehra bilan bag'rige oldi. Bag'ri keng, qalbi toza, bolajon xalq, zahmatkash va mehnatkash o'zbek xalqining matonatiga, sabr – qanoatiga, og'ir damlarda, bir-biriga mehr oqibati, yordam qo'lini cho'zishi, qo'llab-quvvatlashi haqida buvim maqtab gapirardilar. Frontda hamda front ortida zahmat chekkan o'zbek xalqini birvarakayiga chinakam qahramonlar deyish mumkin edi. Ona Vatan uchun, bizlar uchun janglarda qatnashgan va halok bo'lgan hamda front ortida

og’ir mehnat qilgan jasorat va matonat ramzi hisoblangan ota-bobolarimiz va momolarimizning yorqin xotirasi qalbimizda abadiy yashaydi.

Ha azizlar, bu urush bizga juda qimmatga tushdi. Chunki u bizlarni biz uchun eng qadrli va eng aziz bo’lgan ota-onalarimizdan bevaqt ayirdi. Qanchadan qancha ota-onalar farzandlaridan, ayollar turmush o’rtoqlaridan, opa-singillar aka-ukalaridan, farzandlar otalaridan, eng achinarlisi ba’zi bir onaizorlar bir emas, bir nechta farzandidan birvarakayiga judo bo’ldilar. Sho’rlik onaizorlar farzand dog’ida kuyib kul bo’ldilar. Ularni dod-faryodlari, ohu-nolalari olamni tutib ketdi. Bechora bir nechta onalar farzandlarini o’lganiga ishonmay, umrlarini oxirigacha kutib yashadilar. Bizning yurtimizda ham urushdan jabr ko’rgan muqaddas va mo’tabar sho’rlik o’zbek onalarining siymosi aks etgan, “motamsaro ona” haykali ularga bo’lgan hurmat va ehtirom sifatida qad ko’tardi. Agar bugungi dorulomon kunlarni qadriga yetmoqchi bo’lsangiz, ona haykal oldidan befarq o’tib ketmang. Soddagina, xokisor, yuzlari mayus va mahsun onaizorning g’amgin ko’zlariga boqing. His qilyapsizmi ??? Urush dahshatlaridan jabr ko’rgan bechora onaizorning gulgun chehrasiga qator-qator ajinlar yugurgen. Og’ir mehnat, azob-uqubat, g’am-alam nozik-nihol qaddini dol qilgan, farzand sog’inchi qalbini tilka pora qilgan, dilbandining o’lganiga ishonmay uni kutib, g’amgin va nursiz ko’zlar yo’llarida umidvor boqqan, yillar davomida qilgan orzu-niyatlari sarobga aylangan, taqdirning shavfqatsiz zARBALARI oldida, chorasiz qolib, bor dardu-alamlarini ichiga yutib, unsiz faryod chekayotgan onaning dardu-hasratlarini anglash uchun inson proffessor, olim yoki oliy ma’lumotli bo’lishi shart emas, oddiy inson bo’lsak ham, vijdonimiz, qalb ko’zimiz uyg’oq bo’lsa shuni o’zi kifoya.

“Ona siymosi oldida unga hurmat bajo keltirib, bir daqiga sukul saglang”

Chunki ular bizning chiroqli yurtda tinch-totuv yashashimiz uchun jondan aziz bo’lgan farzandlarini qurban qildilar. Ular esa bizning ota-bobolarimizdirlar. Ularni unutishga hech birimizning haqqimiz yo’qdir.

Hech kim, hech nima, hech qachon unutilmaydi.

Aziz do’stlarim. Bugungi tinch-totuv va farovon kunlar o’z-o’zidan kelgani yo’q. Buning uchun qanchadan qancha ota-bobolarimiz, momo-yu-onalarimiz shirin jondan kechdilar. Bizlar esa ularni chekkan zahmatlarini qadriga yetib, ularni ruhi-poklarini hurmat qilib, biz uchun meros qilib qoldirilgan Vatanimiz sarhadlarini, tinchligimizni, hushyor turib g’araz niyatli kimsalardan himoya qilaylik. Hamda yurtimizning gullab-yashnashi va rivojlanishi uchun tinimisiz o’qib, izlanib, mehnat qilib, ajdodlarimiz orzu qilgan davlatlar qatoriga qo’shaylik

Urush haqida bobom va buvim so’zlab bergen, voqealardan ta’sirlanib, quyidagi o’zim yozgan she’rimni qog’ozga tushirdim

"Insonlarga iltimosim"

Tushunmasman , insonni aslo
Nima uchun nega talashgan.
Ayting axir bu urush bizga
Nega kerak , nima berolgan.

Aziz, muqaddasdir har inson joni,
Shodlik , quvonchda o'tsin har oni.
Nohaq to'kilmsin hech inson qoni.
Olamni tutmasin ohu-fig'oni.

Tinchlik ila uyimiz obod
Xalqlarimiz, ellarimiz shod
Butun olam yashnar umrbod.
Urush noming bo'lsin bizga yot.

Iltimosim sizdan odamlar
Ozor bermang bir-biringizga
Bu dunyoda inson g'animat
Mehr bering bir-biringizga.

**VA SO'NGGIDA URUSHLAR TUGAYDI. RAHBARLAR QO'L BERISHADI. BECHORA
ONAIZORLAR ESA, HALOK BO'LGAN FARZANDLARINI KUTIB QOLAVERADILAR.
ENG ACHINARLISI HAM ANA SHUNDA.....**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Urush>
2. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi"
3. <https://portal.piima.uz/news/urush-noming-ochsin-jahonda>
4. <http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/urush-onalarning> lan'atidir